

KOBAVIT

**GEPATOPOTEKTOR, ANTIANEMIK VA ME'DA-ICHAK
YARALARINI DAVOLOVCHI INNOVATSION PREPARAT
QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA**

«TASDIQLANGAN»
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI

Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini
nazorat qilish bosh boshqarmasi

Preparatni qabul qilishdan avval yoriqnomani o'qib chiqish tavsiya qilinadi, unda siz uchun muhim va foydali ma'lumotlar mavjud. Qo'shimcha malumot olish uchun siz davolovchi shifokorga yoki farmasevtga hamda togridan togru kompaniyaga murojat qilishingiz mumkin

Preparatning savdo nomi: Kobavit

Ta'sir etuvchi modda: Kobavit – kobaltning glutamin kislotasi va vitamin U bilan kompleks birikmasidir.

Chiqarilish shakli: Tabletkalar 0,005 g va 0,01 g dan blisterlarda va flakonlarda.

Farmakoterapevtik guruhi: Gepatoprotektorlar. Eritropoezni rag'batlantiruvchi vositalar. Yaraga qarshi vositalar.

Farmakologik xususiyatlari

Kobavitning yuqori darajali klinik samarasi bir vaqtda uning tarkibiy qismlarining xususiyatlari, shuningdek ularning endogen faolligini sezilarli orttiradigan yagona tarkib – biokompleksga birikkanligi bilan belgilanadi.

Kobavitning tarkibiga struktura shakllantiruvchi element sifatida kiritilgan *kobalt* xayotiy zaruriy mikroelement bo'lib, organizmda o'ta muhim rol ni bajaradi. U oqsil, yog` va karbon suvlar almashinuviga ijobiy ta'sir qiladi, organizmda A, C va K vitaminlari, shuningdek B guruhi vitaminlarining to'planishiga yordam beradi, nikotin kislotasi, peridoksin va NAD sintezini kuchaytiradi. Kobaltning ta'sirida antioksidant tizimining fermentlari faollashadi, asosiy almashinuv kuchayadi, to'qima nafasi yaxshilanadi.

Kobalt qon hosil qilish jarayonining muhim omilidir. Uning ta'sirida mineral almashinuv yaxshilanadi, shu jumladan temir, kalsiy va fosforning o'zlashtirilishi ham.

Kobavitning tarkibiga kiruvchi *vitamin U* transmetillanish, transulfatlanish, transaminlanish kabi muhim biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etishi orqali metabolik jarayonlarda yetakchi omil vazifasini bajaradi. Detoksikasion, regeneratsiyalovchi, antioksidant xossalariga ega. Transmetillanish jarayonlarida ishtirok etib hujayra membranasining fosfolipidlari, neyrotransmitterlar, nuklein kislotalari, oqsillar, gormonlar va boshqalar sintezi uchun zarur bo'lgan metal guruhlarining donori vazifasini bajaradi. Shuningdek radikallar va qator ekzo- va endogen tabiatli toksik birikmalarni metillash orqali ularni zaxarli bo'lmagan shakllarga aylantiradi.

Vitamin U ta'sirida gepatositlardagi endogen fosfatidilxolinning sintezini normallashtirish, membranalarining regeneratsiyasini tiklanishga, ularning oquvchanligini va qutblanishini oshishiga yordam beradi, va shu bilan gepatositlarning membranalari faoliyatini, o't-safro kislotalarining transport tizimlarini tiklaydi va o't-safro kislotalarining o't-safro chiqarish tizimiga ajralib chiqishiga yordam beradi, konyugatsiyalanish jarayonlarini faollashtirishi orqali gepatositlardagi o't-safro kislotalarining toksikligini kamaytiradi. Vitamin U lipotrop ta'sirga ega, shuning uchun jigarning yog'li distrofiyasini oldini oladi.

Vitamin U ning me`da va o`n ikki barmoq ichak yara kasalligidagi ahamiyatli xususiyatlaridan biri, gistaminning metillanishi orqali namoyon bo`luvchi antigistamin xususiyatidir. Natijada me`da shirasining sekresiyasini boshqaruv jarayonlari normallashtiradi, og`riq sindromi yo`qoladi va tiklanish jarayonlarining tezlashishi yuz beradi. Bundan tashqari, vitamin U me`daning kislota xosil qilish faoliyatiga normallashtiruvchi ta'sir ko`rsatadi: pasaygan kislotalik oshadi, oshgani esa- pasayadi.

Kobavit tarkibiga kiruvchi *glutamin kislotasining asosiy faoliyatlaridan biri* uning azot almashinuv jarayonlaridagi ishtiroki hisoblanadi. U ammiakning zararsizlantirilishi va buyraklar orqali chiqarilishiga yordam beradi. Ammiakning bog`lanishi va zararsizlantirilishi MNT normal faoliyatida, shu jumladan ensefalopatiyani oldini olishda yoki uni yo`qolishida muhim rol o`ynaydi.

Glutamin kislotasi atsetilxolin sinteziga, kaliy ionlarining tashilishiga yordam beradi, bosh miyaning oq va kulrang moddalaridagi oqsil va karbon suvlar almashinuvida ishtirok qiladi, bosh miya faoliyatini energiya bilan ta`minlanishida, folat kislotasini (pteroilglutamin kislotasi) biosintezida muhim rol o`ynaydi. Miya to`qimasining hujayralarida amalga oshuvchi va ATF ko`rinishida to`planuvchi energiyani chiqarilishi bilan kechuvchi oksidlanish- qaytarilish jarayonlarida muhim rol o`ynaydi, neyromediator vazifasini bajaradi.

Kobavit yuqori darajadagi hepatoprotektiv, antianemik va me`da- ichak yaralariga qarshi faollikga ega.

Preparatning ta`siri ostida jigarining antitoksik faoliyati va to`qimalarning, shu jumladan jigar parenximasining regeneratoir potentsiali ahamiyatli oshadi, jigar fermentlarining (AIAT va AsAT), xolestaz markerlarining (ishqoriy fosfataza, gamma- glutamiltransferaza) faolligi pasayadi. Kobavit qon zardobidagi bilirubinning miqdorini jadal kamaytiradi, jigarining o`t- safro hosil qilishi va o`t- safro chiqarish faoliyatini tiklaydi. Antioksidant va membranani barqarorlashtiruvchi faolliklarga ega.

Preparat ko`pchilik xollarda HBsAg titrini tez pasayishiga, xatto uni butunlay yo`qolishigacha yordam beradi. Kobavit turli etiologiyali va turli og`irlik darajasidagi anemiyalarni davolashda yuqori antianemik samara ko`rsatadi. Ozuqa mahsulotlari tarkibidagi va temir saqllovchi preparatlar tarkibidagi temirning ichakda o`zlashtirilishini kuchaytiradi. Temirni gemoglobinning tarkibiga samarali kirishiga yordam beradi, eritrositlarning yetilishini va ularni aylanib yuruvchi qonga tushishini tezlashtiradi, suyak kumigi faoliyatini faollashtiradi.

Preparat me`da- ichak yo`llarining yara kasalligida gastroduodenal sohaning shilliq qavatiga induktiv, antioksidant va sitoprotektiv ta`sir ko`rsatadi. Uning ta`siri ostida shilliq to`qima qavatida erimaydigan glikoproteinlarning sintezi kuchayadi, shilliq to`sig`ining qovushqoq – elastik xususiyatlari jadal tiklanadi, kasallikning klinik belgilarini yo`qolish va yaralarning chandiqlanish muddatlari qisqaradi. Preparat monooksigenaza tizimining fermentlariga induktiv ta`sir ko`rsatadi, antioksidant fermentlarining faolligini oshirish yo`li bilan namoyon bo`luvchi antioksidant ta`sirga ega. Uning ta`siri ostida shilliq qavatida rux, kobalt va selenning miqdori oshadi, temirning miqdori esa (LPO jarayoni aktivatori) kamayadi.

Kobavit shuningdek immunomodullovchi ta`sirga ega. Uning ta`siri ostida qisqa muddatlarda

astenizatsiya belgilari (tez toliqish, ko`p terlash va x.k.) o`tib ketadi.

Qo`llanilishi

Gepotoprotektor vosita sifatida turli genezli o`tkir va surunkali hepatitlarda (shu jumladan virusli, reaktiv), jigar sirrozida; postgepatit gepatomegaliyada, homiladorlikdagi gepatopatiyada, xamda turli gepatotoksik preparatlar bilan bog`liq bo`lgan gepatopatiyalarda, jigarining turli etiologiyali toksik shikastlanishlarida, shu jumladan alkogolli, dorili (antibiotiklar, o`smaga, tuberkulozga va viruslarga qarshi preparatlar, trisiklik antidepressantlar, peroral kontraseptivlar va boshqalarni qo`llash oqibatidagi); surunkali HBs- antigen tashuvchanlikda ham qo`llanadi.

Antianemik vosita sifatida temir yetishmovchiligi bilan bog`liq bo`lgan (gipoxrom anemiyada, homiladorlar va emizuvchi onalar anemiyasida, bolalardagi alimentar tabiatli anemiyada) vitamin B₁₂ tanqisligi bilan bog`liq bo`lgan anemiyada, aralash genezli anemiyada, toksik moddalar va dori preparatlari chaqirgan anemiyalarda, gipoplastik va postgemorragik anemiyalarda qo`llanadi.

Sitoprotektor va yaralarning bitish muddatlarini tezlashtiruvchi preparat sifatida me`da va o`n ikki barmoq ichak yarasida qo`llanadi. Preparat shuningdek gastroduodenal yaralari bo`lgan bemorlarda turli operativ aralashuvlardan keyin uzoq muddatlarda paydo bo`ladigan asoratlarni davolashda ham qo`llanadi.

Qo`llash usuli va dozalari

Preparat ichga ovqatdan 1,5- 2 soat oldin qabul qilinadi.

Gepatiti bo`lgan katta yoshli bemorlar uchun 0,01g li tabletkalar, bolalarga – 0,005g li tabletkalar tavsiya etiladi.

Virusli hepatitlarda preparatni quyidagi sxema bo`yicha qo`llash kerak:

Gepatit turi	Asosiy davolash	Tutib turuvchi davolash
Gepatitning o`tkir shakli	Birinchi 10 kun davomida kuniga 2tabletkadan 2 marta, keyinchalik 1 tabletkadan 2 marta 15kun davomida	Kuniga 1 tabletkadan 10 -15 kun davomida
Uzoq davom etuvchi virusli gepatit	Kuniga 2 tabletkadan 2 marta 20-25 kun davomida	Shart emas
Surunkali persisterlovchi gepatit (SPG)	Kuniga 1 tabletkadan 2 marta 20-25 kun davomida	Kuniga 1 tabletkadan 1 marta 1,5 - 2 oy davomida
Surunkali faol gepatit (SFG) va jigar serrozi	Kuniga 2 tabletkadan 2 marta 20-25 kun davomida	1 tabletkadan 2 marta 1,5 - 2 oy davomida

HBs – antigenini tashuvchilik holda davolash kursi (kuniga 1 tabletkadan 2 marta) to HBs – antigen titri yo`qolguncha davom etadi, ammo davolash muddati 2 oydan oshmasligi kerak.

HBs- antigenining titri kamaygan, ammo butunlay yo`qolmagan hollarda preparatni qo`llashni

qo`shimcha davolash kurslarini buyurish orqali davom ettirish mumkin. Kurslar orasidagi muddat- bir oy.

Turli etiologiyali anemiyalarda preparatni, kasallikning og`irlik darajasiga qarab, quyidagi sxema bo`yicha qo`llash tavsiya etiladi:

Yangi tugʻilgan chaqaloqlar va goʻdaklar anemiyasi	Tabletkalar 0,005 g dan kuniga 2 marta 10-20 kun davomida
Yengil darajali anemiyalar	Tabletkalar 0,005 g dan kuniga 3 marta 20-25 kun davomida
Oʻrtacha va ogʻir darajali anemiyalar	Tabletkalar 0,01 g dan kuniga 3 marta 15-20 kun davomida

Meʼda va oʻn ikki barmoq ichak yara kasalligini konservativ davolashda, shuningdek gastroduodenal soxa yara kasalligidagi operativ aralashuvlardan keyin preparatni quyidagi sxema boʻyicha qoʻllash kerak:

tabletkalar 0,01g dan kuniga 2 marta
20-25 kun davomida.

Nojoʻya taʼsirlari

Preparat yaxshi oʻzlashtiriladi. Qanday boʻlmasin nojoʻya samaralari aniqlanmagan.

Qoʻllash mumkin boʻlmagan holatlar

Preparatning komponentlariga yuqori sezuvchanlik.

Maxsus koʻrsatmalar

Goʻdaklar anemiyasida preparatni oz miqdordagi qaynagan iliq suvda eritiladi va ona suti bilan birga beriladi.

Yengil darajali anemiyalarda preparat monodavolash preparati sifatida, ogʻirroq anemiyalarda, kattalarda uni temir preparatlari bilan birga ishlatish mumkin.

Preparat bazis davolashda qoʻllanadigan barcha preparatlar bilan yaxshi uygʻunlashadi. Ammo gepatitlarda kobavit qoʻllanganida boshqa viruslarga qarshi preparatlarni ishlatish maqsadga muvofiq emas.

Preparatni virusli gepatitning oʻtkir shakllarida qoʻllash kasallikning surunkali shakllarini rivojlanishini, surunkali shakllarida esa patologik jarayonini keyinchalik yanada kuchayishini, shu jumladan jigar serrozining rivojlanishini oldini oladi.

Gastroduodenal yarali bemorlarda turli operativ aralashuvlardan keyin qoʻllash, uzoq muddatdan soʻng paydo boʻladigan asoratlarni oldini oladi.

Preparat bolalar olaolmaydigan joyda saqlansin va yaroqlilik muddati oʻtganidan keyin ishlatilmasin.

Saqlash sharoiti

Quruq, salqin va yorugʻlikdan himoyalangan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi

«A.B.- BIODOM» MCHJ

Kompaniya oʻz mahsuloti sifati va isteʼmolchilar sogʻligi haqida oʻylaydi. Shuni inobatga olgan holda, preparat haqida sizning fikr va mulohazangiz, uning effektivligi yoki nojoya tasiri kuztilgan hollarda, shuningdek dori vosita haqida sizlar uchun muhim bolgan malumotlar xaqida bizga yozma yoki telefon orqali murojat etishingizni soraymiz

A.B.-BIODOM
farmaseftik kompaniy



100053. Toshkent shaxri,
Ezgulik koʻchasi, 27 uy



biokom.uz@yandex.ru



+99890 350-20-51



www.biokom.uz